

O'ZBEKISTONDA MUZEYLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNING FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Axmedova Muxayyo Ilxomjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21914275>

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda muzeylarni tashkil etish, ularning faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan muvofiqlashtirish masalalari yoritiladi. Muzeylarning madaniy merosni asrash, ilmiy-tadqiqot, ta'limiy va ma'rifiy faoliyatdagi o'рни, ularni boshqarish mexanizmlari hamda zamonaviy muzey faoliyatiga qo'yilayotgan talablar tahlil qilinadi.

Shuningdek, muzeylar faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, malakali mutaxassislar tayyorlash va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirishning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: muzey, muzeyshunoslik, madaniy meros, Milliy muzey fondi, muzey faoliyati, muzey boshqaruvi, ekspozitsiya, muzey ta'limi, raqamli texnologiyalar.

O'zbekistonda muzeylar xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlash, o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazishda muhim ijtimoiy-madaniy institutlardan biri hisoblanadi.

Muzeylarning faoliyati nafaqat eksponatlarni saqlash va namoyish etish, balki ilmiy-tadqiqot, ta'lim, ma'rifat va jamoatchilik bilan kommunikatsiyani rivojlantirish vazifalarini ham qamrab oladi. Shu sababli mamlakatda muzeylarni tashkil etish va ularning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda muzey faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-son qarori bilan "Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi" tasdiqlangan [1].

Mazkur hujjat muzeylarni tashkil etishning asosiy shartlari, ularning maqsad va vazifalari, tashkiliy-huquqiy maqomi hamda faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Muzeylarning asosiy maqsadlari muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, to'plash, saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etishdan iborat. Shu bilan birga, muzeylar madaniy, ma'rifiy, ilmiy va ta'lim faoliyatini amalga oshiradi. Muzeylarning muhim vazifalaridan biri xalqning boy madaniy merosini haqqoniy yoritish, tarixiy va madaniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Muzey tashkil etilishi uchun tegishli muzey ashyolari va kolleksiyalarining mavjudligi, ularni saqlash va namoyish etish talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza hamda zarur moliyaviy mablag'larning mavjudligi talab etiladi. Mulkchilik shakliga ko'ra muzeylar davlat va nodavlat muzeylarga bo'linadi. Ixtisoslashuviga ko'ra esa muzeylar hamda muzey-qo'riqxonalar shaklida faoliyat yuritishi mumkin. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirishda Milliy muzey fondining Davlat katalogi alohida ahamiyatga ega. Davlat katalogi Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni jamlovchi hisobga olish tizimi hisoblanadi. Mazkur tizim muzey boyliklarini hisobga olish, ularning saqlanishini nazorat qilish va ilmiy-madaniy maqsadlarda ulardan foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Muzey ashyolarining yagona hisob tizimida yuritilishi ularning huquqiy muhofazasini kuchaytirish va butligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Muzeylar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishda Madaniy meros agentligi tizimining o'рни muhimdir. 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son qaror bilan belgilangan vazifalar doirasida muzeylarni rivojlantirish, yodgorliklarni muzeylashtirish va Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritish bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari belgilangan [2].

Mazkur tizim doirasida muzey fondlarini nazorat qilish, muzey ashyolarini Milliy muzey fondiga kiritish, ularning saqlanishini ta'minlash, muzey xodimlarining malakasini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Muzeylarni boshqarishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham o'ziga xos vakolatlari mavjud. Ular hududdagi muzey ashyolari va kolleksiyalarining but saqlanishini ta'minlash, davlat muzeylarini moliyalashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda muzeylarning muntazam faoliyat yuritishini ta'minlashda ishtirok etadi.

Muzey faoliyatini yanada rivojlantirish va jamoatchilik bilan aloqalarni kuchaytirish maqsadida Jamoatchilik kengashlarini tashkil etish imkoniyati ham mavjud. Muzeylarning samarali faoliyat yuritishida ularning moddiy-texnik bazasi bilan bir qatorda malakali mutaxassislar ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy muzey xodimi muzeyshunoslik nazariyasi bilan birga ekspozitsiya tashkil etish, fond ishlari, hujjatlashtirish, kommunikatsiya, muzey menejmenti va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida muzeyshunoslik bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va muzey xodimlarining malakasini muntazam oshirish muhim vazifalardan biridir. Muzeylarning zamonaviy rivojlanishida ekspozitsiyalarni yangilash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Interaktiv ekspozitsiyalar, multimedia vositalari, elektron kataloglar, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalardan foydalanish tashrif buyuruvchilarning muzeyga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalar va noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Muzey va ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham ushbu sohaning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Maktablar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda muzey darslari, amaliy mashg'ulotlar, ilmiy seminarlar va ta'limiy loyihalarni tashkil etish yoshlarning tarixiy-madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Muzeylarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'limning an'anaviy shakllarini boyitib, o'quvchilarda tarixiy tafakkur, milliy o'zlik va madaniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi. Muzeylarning faoliyatini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy muzeylar bilan ko'rgazmalar tashkil etish, tajriba almashish, zamonaviy muzey texnologiyalarini o'rganish va ilg'or boshqaruv usullarini joriy etish O'zbekiston muzeylarining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy tashkilotlar, korxonalar, ta'lim muassasalari va nodavlat sektor bilan hamkorlik qilish muzeylarning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Muzeylarni toifalash ham ularning faoliyat samaradorligini baholashning muhim mexanizmlaridan biridir. Bunda muzey fondlarining holati, noyob eksponatlarning mavjudligi, moddiy-texnik ta'minot, tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ekspozitsiyalarning zamonaviy talablarga mosligi, xalqaro aloqalar va tashrif buyuruvchilar soni kabi mezonlar hisobga olinadi. Mazkur mezonlar muzeylarning faoliyat darajasini aniqlash va ularni yanada rivojlantirish bo'yicha tegishli choralarni belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda muzeylarni tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishning huquqiy, tashkiliy va ilmiy asoslari shakllangan. Biroq zamonaviy muzeylar oldida tashrif buyuruvchilar sonini oshirish, ekspozitsiyalarni yangilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislar tayyorlash va ta'lim tizimi bilan integratsiyani kuchaytirish kabi yangi vazifalar turibdi. Muzeylarni faqat tarixiy buyumlarni saqlovchi muassasa sifatida emas, balki ta'lim, ilm-fan, madaniyat va jamoatchilik kommunikatsiyasining zamonaviy markazi sifatida rivojlantirish bugungi kunning muhim talabidir.

Xulosa qilib aytganda, muzeylarning samarali faoliyatini ta'minlash uchun huquqiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning ilmiy, ta'limiy, kommunikativ va raqamli imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, zamonaviy ekspozitsiyalar yaratish, muzey-ta'lim hamkorligini kuchaytirish hamda davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish O'zbekistonda muzeylar faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-son "O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi qarori. [LexUZ](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son qarori. [LexUZ](#)
3. Илалов И. *Музееведение*. — Ташкент, 2006.